

AYVOMINGIZ MUBORAK,

aziz onaxonlar,

qadrlit opa-singillar!

DUSHANBADAN

TABRIKLASHNI UNUTMANG!

Bugun 2-mart. Gazetani qo'lga oldingiz! Birinchi galdan onalaringiz, opa-singillaringiz va ustozlaringizni tabriklashni unutmang. Bir og'iz shirin so'zingiz har qanday qimmatbaho buyumdan a'lo va qadriligini bilasizmi?

RAHBAR BO'LISHNI XOHLAYSIZMI?

Bu behuda gap emas. Notiq, ruhshinos va yana... yana rahbar bo'lishni xohlasangiz, «Kamolot» YOIH Xorazm viloyati kengash qoshida tashkil etilgan «Sardorlar maktabi»ga keling. Bu yerda 12 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan yoshlar qabul qilinadi.

SHAHNOZA VA GULNOZA

Opa-singil yosh muxbirlarimiz xabariga ko'ra, Sirg'ali politexnika kasb-hunar kollejida navoiyxonlikka bag'ishlangan katta tadbir bo'lib o'tgan. Unda 31-, 46-, 52-, 60-guruhlar va I-bosqich talabalari g'oliblikni qo'lga kiritishgan. Tahririyatimiz nomidan ularni quqlaymiz.

DUSHANBAGACHA



Shahzoda Abdurasulova Xorazm viloyatining Urganch shahrida tug'ilgan. Hozirda Toshkent Davlat yuridik instituti qoshidagi akademik litseyda tahsil oladi. Bo'sh vaqtda she'rlar mashq qiladi. (4-betda tengdoshingiz ijodidan na'munalar o'qiysiz)

MAKTABDA BAYRAM BO'LDI

Nihoyat, 1-«A» sinfida bayram boshlandi. Sinf xonasiga kelgan ot-onalar, mahalladagi mehmonlar-u maktabdagi o'qituvchi, o'quvchilar hayajonda.

Axir bugun shahrimizdagi 59-xitoy tiliga ixtisoslashgan maktabda savodxonlik bayrami!


Sinf rahbari Sapura opa Sulaymonova tadbirga tashrif buyurgan mehmonlarni «Xush kelibsizlar», deya qarshi oldi. Xonani

qarsaklar sadosi tutdi. Yangroq kuy-ko'shiq taraldi. Harflar «tilga kirdi». Bilimdun bolakaylar 32 harf ko'rinishida biri-biridan quvnoq she'rlar aytishdi.


Alifbe bilan xayrlashgan o'quvchilar o'qish kitobi bilan tanishdilar.

Hozir ular kitobdagi ibratli hikoyalar, quvnoq she'rlarni qiynalmay o'qimoqdalar.

Muzaffar
AHMEDOV



POYTAXTIM



Sen yurtimning poytaxtisan,
Istiqlolimning taxtisan,
Ona xalqimning baxtisan,
Go'zal Toshkentim.

Sara gullar bo'stoni,
Shoirilarning dostoni,
Ulug'larning armoni,
Chaman Toshkentim.

Ko'hna, qadim sen Shoshsan,
Ona zaminga boshsan,
Yetti darvozadoshsan,
Ulug' Toshkentim.

Shodiyabegim SHAROFIY,
Jizzax viloyati, Forish tumanidagi
59-maktabning 7-sinf o'quvchisi

Aziz onajonlarimizni qancha e'zozlasak oz!

Bayram maktublari

BU BAYRAMNI KIM TOPGAN?

Onajonim, men sizni bayramingiz bilan tabriklayman! Bu bayramni kim o'ylab topgan bo'lsa ham, zo'r ish qilgan-da. Axir onalarimizni qancha e'zozlab xursand qilsak oz! Ustozlarimizni aytmaysizmi? Kechalari daftarlarimizni tekshirib, tunni bedor o'tkazishadi. O'qituvchilarim Nazokat opa Yo'lyaxshiyeva va Nazokat opa Egamovalarni ham qutlayman!

Madina SUYUNOVA,
Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi
73-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi

«TABRIGIM GAZETADA CHIQDI»

«He-he-hey! Suyunchi, suyunchi, bayramga yozgan tabrigim gazetada chiqibdi. Endi onam va ustozlarim qancha quvonadilar, bilasizmi? Sevimli «Tong yulduzi»m, senga rahmat!»

8-martda onajonisi va ustozlarini gazeta orqali tabriklashni istagan quyidagi tengdoshlaringiz endi ana shunday quvonishsa, ne ajab! Ularga havasingiz kelyaptimi? Unda siz ham maktublar yo'llang!

BAYRAM BILAN QUTLAYMAN

«Tong yulduzi» tahririyatida ko'proq ayollar ishlashlarini eshitganman. Shuning uchun o'ylanib qoldim: axir shunday gazetani bizga yetkazib berayotgan jurnalist opalarimizni tabriklamasak bo'lmas!

Men barcha Respublika bolalari nomidan sizlarni bayram bilan qutlayman!

Hurriyat YO'LDOSHEVA,
Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi
30-maktabning 9-sinf o'quvchisi

USTOZLARNI ZERIKTIRMAYMIZ

Har yili maktabimizda xotin-qizlar bayrami zo'r o'tadi. Ustozlarimizni kun bo'yi bayram bilan tabriklaymiz. Ko'tarinki ruhda ashulalar aytib beramiz, tanaffus paytida she'rlar aytib, ustozlarga zavq ulashamiz. So'ng, uyga ketar chog'i yo'lda dugonalar bilan onalarimizga tabrik so'zimizni o'ylab ketamiz.

Bizni esa sinfimizdagi o'g'il bolalar tabriklashadi. Bu shunday zo'r kun-da!

Anora ADHAMOVA,
Andijon viloyati,
Ulug'nor tumanidagi
16-ixtisoslashtirilgan maktab-
internatining 11-«A» sinf o'quvchisi



FAQAT «BESH» OLAMIZ


Bilasizmi, meni o'qitgan birinchi ustozim endilikda ukamni o'qitmoqdalar. Quvonarlisi, ustozim o'qitgan o'quvchilarning ko'pchiligi a'lochi. Ukam ikkimiz ustozimiz Gulsara Sobirovani bayram bilan tabriklaymiz!

Zarnigor SHUKUROVA,
Buxoro viloyati, Qorako'l tumanidagi
34-maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi

Bu aifb dunyo

SINOPTIK CHIRILDOQLAR

Chirildoqlar qanday qilib ob-havoni bilar ekan, deb hayron bo'lyapsizmi? Britaniya entomologiya instituti olimlarining fikricha, yoz oylarida termometrsiz ham ob-havo qandayligini bilish mumkin ekan. 15 daqiqa ichida chirildoq necha marta chirillashini hisoblab, hosil bo'lgan songa qo'shilsa, shu paytda harorat necha daraja ekanligini tez sezib, kun issiq kelsa yoki dam-badam pasaysa, har zamonda bir chirillab qo'yar ekan. Ana, shunaqa!..



MOHIR SUZUVCHI QUSH

Sarlavhani o'qib, bu qaysi qush ekan, deb hayron bo'lmang. Gap pingvinlar haqida bormoqda. Bu ajoyib qush suvda soatiga 36 kilometr tezlikda suzishini hamma ham bilavermasa kerak.



DARUZ MAYMUN

Dunyoda maymunlarning turlari ko'p. Ammo ular orasida eng kattasi gorilla bo'lib, uning bo'yi ikki metrdan iborat. Tanasining og'irligi esa 260 kilogrammga yetadi.



- Yana diyorimizni bahor o'z og'ushiga oldi. Yurtimiz dala-qirlarini silab-siypalab muattar shabadalar esadi, dov-daraxtlar quyoshga jilmayib kurtak yozadi.
- Bo'g'otlarda qushchalar shodon sayraydi. Yalpiz isi gurkirab, anhor suvlar qo'ng'iroq chalib oqadi.
- Bahor elimizning eng suyuqli bayrami – Navro'zni olib keladi.
- Abu Rayhon Beruniy «Sharq xalqlaridan qolgan yodgorliklar» deb atalmish shoh asarida Navro'z haqida qiziq ma'lumotlar keltiradi. Allomaning yozishicha, Navro'z kuni tong otganda xonadon egalari bir-biri bilan so'zlashmasdan turib uch qoshiq asal yalab, uch bo'lak mushk-anbar tutatsalar, yil bo'yi kasallikka chalinmas emish.
- Mahmud Qoshg'ariyning «Lug'otit-turk» qomusiy kitobida Navro'zga, umuman bahoriy bayramga bag'ishlangan ko'plab xalq termalarini uchratish mumkin. Shulardan biri mana shunday:
- Qaqragan yer ko'l bo'ldi,
- Tog'lar boshi ho'l bo'ldi,
- Dunyo tomi isidi
- Gulchechaklar ochilur.
- Xalq og'zida bunday she'riy bitiklar talaygina.
- Bolalik paytimizda aytib yuradigan o'sha mashhur qo'shig'imizni eslaylik:
- Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak,
- Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak.
- Hovlimizda ayolginalar sumalakka hozirlik ko'ryaptilar. Bolalar chopqillab o'tin teradi, kelinlar un elaydi, kayvoni momolar undirilgan bug'doy maysalarini

maydalab, suvini shukrona etib qosh-ko'zlariga surtyaptilar. Ularga boqib, beg'ubor bolaligimni eslayman. Biz bobomlar bilan bir hovlida turardik. Navro'z yaqinlashganda, bobom yetti xil don olib, kichkina hovonchada tuyardi. Bular bug'doy, arpa, tariq, no'xot, mosh, jo'xori, loviyadan bo'lardi. Haligi donlar obdon yanchilgach, ayam ularni

NAVRO'ZIM



MA'RIFIY SUHBAT SABOQLARI



GULDAN UYALIBDI

Ziyoda opa G'afforova «Hayratul-abror» dostonidan bir hikoyat aytib berdilar. Shoh mahbusasiga qo'l uzatib, darhol qo'lini olibdi. Sababi, u ro'parasidagi guldani uyalibdi. Hayo – sharqona fazilat ayrim qizlarimizda kamayib ketganidan, ochiq-sochiqlikdan kuyunib gapirdilar. Istardimki, tengdoshlarim, ko'cha-ko'ydagi ayrim «modaparast»lar bu kabi rivoyat va hikoyatlarni ko'proq o'qishsa. O'zbek xalqiga xos odat, hayo, iboni unutmaylik.

Zebo ZOIROVA,
7-«B» sinf o'quvchisi

BOBOMIZDAN FAXRLANDIK

Olimlar bilan uchrashuv davomida savol-javob bo'lib o'tdi. Sultonmurod aka bizdan «Navoiyga qaysi davlatlarda haykal o'rnatilgan?» deb so'radilar. Biz Moskva, Boku, Toshkent, Navoiy shaharlarida o'rnatilganini aytdik. Biroq, Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Qohirada Farg'oniya, Tokioda Alisher Navoiy bobomiz xotirasiga barpo etilgan yodgorliklar borligini suhbatdan bilib oldik. Tokiodagi haykalni ko'rmagan bo'lsak-da, shunday mashhur bobolarimiz borligidan faxrlandik, ularga munosib avlod bo'lishga ahd qildik.

Shahzod ANVAROV,
Zaynobiddin SHUKUROV, 7-«V» sinf o'quvchilari



HAVAS QILDIK

Shoir Abdunabi Boyqo'ziyev quvnoq bolalarni sevadigan inson ekanlar. She'rni baland ovoz bilan berilib o'qishlariga havas qildik. Sultonmurod aka yozgan «Onajonim», «Sandroning nolasi» she'rlari ta'sirchan ekan. Bizga ham Bobur, Navoiy g'azallarini ifodali o'qiganimiz uchun «Maqto'v yorlig'i»ni katta olimimiz topshirganlarida, hayajonlanib ketdik. Axir darslik muallifi, katta olim omad tilab, yorliq topshirgani quvonchli voqea-ku! Bunday onlarni sira unutmaymiz.

Laylo HIKMATOVA,
Hasan RAFIQOV, Hojiakbar SODIQJONOV,
6-«V» sinf o'quvchilari

Internet xabarlari

ILONLAR SHOHI

Kolumbiyada ulkan ilon umurtqasi qoldiqlari topildi. Anakondaning uzunligi 12,8 metrni, og'irligi 1.135 kilogrammni tashkil qilar ekan. Kanadaning Toronto universiteti paleontologi Jeyson Xedning ta'kidlashicha, «ilonlar shohi» tropik o'rmonlarda 58-60 million yil avval yashagan. Asosan suvda yurib timsohlarni, quruqlikda esa sigir kattaligidek o'ljani bemalol yuta olgan.

YANGI YULDUZLAR

Koinotda katta tezlikda yulduzlar tug'ilayotgani aniqlandi. Geydelbergdagi Maks Planka nomli astronomiya instituti jamoasi xodimlaridan Valter Bad hamda Fabian Valter bu holatni submillimetr batareyali teleskop orqali kuzatishgan. Yulduzlar Katta Ayyiq yulduzi qarshisida tug'ilganligi astronom olimlar kuzatuvlari natijasida tasdiqlandi.

Umida HAKIMOVA,
Toshkent bank kolleji katta o'qituvchisi

Maktabimizda yozuvchi va ijodkorlar, olim-u darslik mualliflari bilan tez-tez ijodiy uchrashuv, ma'rifiy suhbatlar o'tkazib borish an'anaga aylangan. Yaqinda «Bobolar merosi – bebaho xazina» mavzusida tashkillashtirilgan adabiy-badiiy kecha ham 5-9-sinf o'quvchilari uchun ajoyib tuhfa bo'ldi. Ular taniqli navoiyshunos olim, filologiya fanlari nomzodi Sultonmurod Olimov, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi bo'lim mudiri Ziyoda G'afforova, shoir Abdunabi Boyqo'ziyev, «Tong yulduzi» gazetasi ijodiy xodimi Yusuf Abdullayevning maroqli va mazmunli suhbatlari, «ohori to'kilmagan» yangi she'rlaridan bahramand bo'lishdi. «Yosh aktyorlar» va «Nihol» yosh qalamkashlar to'garagi a'zolari ijro etgan sahna ko'rinishlari, yoddan o'qigan ruboiy va g'azallari kechaga fayz bag'ishlab, o'quvchilar iqtidorini yana bir bor namoyish etdi. Bunda ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari Qumrixon Usmonbekova, Rixsiya Shokirova, Muhayyo Ubaydullayeva, Shohista Daminova va kutubxonachi Yulduz Roziqovalarning hissasi katta bo'ldi.

– O'quvchilardan «Navoiy qancha asar yozgan?» deb so'rasak, 20 ta, 30 ta deb javob berishadi, – deydi Sultonmurod Olimov. – Vaholanki, Hazrat Navoiyning chuqur ma'no singdirilgan, janr talabiga mos ikki misrali fardlarining o'zi ham bir asar emasmi? Hisoblab ko'rsak, Navoiy asarlari soni 4000 ga yaqin ekan.

– Darhaqiqat, buyuk bobomizdan qolgan bu katta badiiy meros nafaqat soni, balki purma'noliligi, she'riy san'atlarga boyligi, tarbiyaviy ahamiyati bilan ham bizni rom etaveradi. Barchani komillik, halollik, adolat, ezguliklar sari yetaklayveradi.

Mahmuda VALIYEVA,

Yunusobod tumanidagi 274-maktab muallimasi

qaynatib, halimga o'xshagan bir taom pishirardi. Uni yegan odam kelasi yil Navro'z gacha sog'-salomat yurar emish. Biz bir osham-bir oshamdan yeb, qanoat qilardik.

Yomg'ir yog'sa, ayam bo'g'otdagi tarnov ostiga tog'ora qo'yardi. Keyin ukalarimni yomg'ir suvida cho'miltirardi. Navro'z suviga cho'milgan odam bir yilgacha og'rimay, kelasi yilga yetib olar ekan.

Navro'z necha kun bo'lsa, bizda shuncha kun sumalak qaynatiladi. Katta qora qozon atrofida yoshlar qaldirg'ochday tizilib o'tiradi. Eng kekxa onaxon fotiha bergach, qozonga qalaq uriladi. Shu-shu, yog'och kurakcha qo'ldan-qo'lga o'tadi. Hamma savobga sherik bo'lishga urinadi.

Chor-atrofnini yoritib chalma-mash'al porillab yonadi, qozon vaqir-vuqir qaynaydi, Salima xolam childirmasini qo'lga olib, laparini boshlaydi. Ana shu sumalak pishdi kuni oshiq yigitlar ma'shuqasini topadi, ya'ni bir uyga kelin tushadi, bir uy kuyovlik bo'ladi. Navro'z kunlari to'y-to'yga ulanadi.

Navro'z sayri bir hafta, o'n kun davom etardi. Keyin qo'shga, ya'ni yer haydashga kirishiladi. Dehqon ho'kiz qo'shilgan omachi bilan dalaga chiqadi. Ho'kizning shoxini qo'chqor yog'i bilan moylaydilar. Qishloqdagi eng qari otaxon fotiha beradi va o'zi bir-ikki qadam omoch suradi. Irimiga bir hovuch donni yerga sochib, el-yurtga risq-ro'z tilaydi. Shundan keyingina qo'sh haydashga tushadilar.

Navro'zni o'ylab, ana shunday yorug' xotiralar quchog'ida qoldim. Navoiy bobo «Har tuning qadr o'libon, har kuning bo'lsin Navro'z», deydi. Men Hazratning o'sha mashhur g'azalidagi ikki tabarruk kalimani takrorlab, «Xush kelibsan, qaro ko'zim Navro'zim!» degim keladi.

Sayfi SODIQ

DIQQAT, TANLOV!

Aziz o'quvchilar! Sizing qanchalik iqtidorli va bilimli ekanligingizni sinash maqsadida «Bilimdonlar tanlovi»ni e'lon qilmoqdamiz. Tanlov shartiga ko'ra, gazetaning har sonida berib boriladigan test savollariga to'g'ri javobni yo'llashingiz kerak. Tanlov 2009-yilning may oyida yakunlanadi. G'oliblar «1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni»da tahririyatga taklif qilinib, sovg'alar bilan taqdirlanadilar. Marhamat, tanlov savollarini e'tiboringizga havola etamiz.

1. Salqin shaharlarda, bodom gulida, Binafsha labida, yerlarda bahor.

Qushlarning parvozi, yellarning nozi, Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

deb boshlanuvchi «Bahor keldi seni so'roqlab» nomli she'ri kimning qalamiga mansub?

- A) Saida Zunnunova;
- B) Zulfiya;
- D) Halima Xudoyberdiyeva.

2. Anolarning oyog'i ostidadir,

Ravzai jannat-u jinon bog'i. Ravza bog'i visolin istar esang,

Bo'l anolar oyog'ining tufrog'i.

Ushbu to'rtlikning muallifi kim?

- A) Lutfiy;
- B) Mashrab;
- D) Navoiy.

3. Taniqli o'zbek shoirasi Zulfiya Isroilova qachon tug'ilgan?

- A) 1915-yil 1-martda;
- B) 1915-yil 8-martda;
- D) 1915-yil 11-martda;

4. Hindistondagi «Toj mahal» maqbara-yodgorligini Shohjahon kimga atab qurdirgan?

- A) Zebunnisoga;
- B) Arjumandbonuga;
- D) Gulrangbegimga.

5. Bibixonimning asl ismlari kim?

- A) Saroymulkxonim;
- B) Hadichabegim;
- D) Gavharshodbegim.


6. Mashhur «Humo-yunnoma» asarining muallifi nomini aniqlang.

- A) Qutlug' Nigorxonim;
- B) Xonzodabegim;
- D) Gulbadanbegim.

GULYUZ tayyorladi



**HAYKAL
POYIDAGI O'YLAR**



Xalqimizning ardoqli qizi, sevimli shoirasi Zulfiya opa haqida buvimlardan ko'p yaxshi xotiralarni eshitganman. Shoiram opamizni nafaqat yurtimizda, balki butun dunyo xalqlari yaxshi tanishgan ekan. Chunki ular xalqlar orasidagi do'stlikni mustahkamlash haqida, tinch-totuv yashash katta baxt ekanligi haqida she'rlar yozganlar, ma'ruzalar qilganlar.

Har yili bahorning ilk kunini xalqimiz, ayniqsa, biz «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari hayajon bilan intiq kutamiz. Boisi, shu kuni sevgi va vafo kuychisi Zulfiyaxonim tug'ilgan kun.

Kuni kecha quchoq-quchoq gullar ko'tarib, shoiram haykali qad rostlagan maydon sari oshiqdik. Haykal poyini gullarga to'ldirib, ustoz xotirasiga bag'ishlangan she'rlarimizdan o'qidik. Shu tariqa ul zotga ehtirom ko'rsatdik:

**QALB QO'RIMIZ SIZGA
BO'LSIN!**

*Qutlug' izdan izdosh bo'lib bormoqdamiz,
Ijodingiz gavharlarin termoqdamiz,
Xayollarda Siz-la suhbat qurmoqdamiz,
Aziz ustoz, qalbinizda Siz hayotsiz!
Ko'ngillarning to'ri doim Sizga bo'lsin,
Qalbimizning qo'ri doim Sizga bo'lsin,
Ehtiromdan pok ruhingiz shodon bo'lsin,
Aziz ustoz, qalbinizda Siz hayotsiz!*

Malika RAHMONBEKOVA

**KO'KLAMNI
KUTIB OLING**

Yuzimga tushgan quyosh nuridan erinib ko'z ochdim. Derazani asta ochib, dimog'inga urilgan yomg'irli havodan to'yib bahra oldim.

Quyosh taftidan qo'rqan oppoq qor zamin bag'ridan najot izlab singiy boshladi. Tarnovlarda qator sumalaklar ko'z yosh to'kdi. Jajjigina qushcha musaffo osmonda kimgadir xushxabar yetkazmoqchi bo'lganday shoshib parvoz qilmoqda. Uzoq-uzoqlardan yangilanish faslining yoqimli kuyi yangramoqda. Zamin bag'rida nish urgan boychechak ko'zga tashlanadi. Demak, bahor sep yoyibdi.

Xonam bahor iforiga to'ldi. Men bahorning birinchi kuniga guvohman. Balki, siz ham ko'klamni shunday kutib olgandirsiz?!

Sohiba ISROILOVA,
filologiya va san'atga
ixtisoslashtirilgan maktab-internatning
8-«A» sinf o'quvchisi



**«QISHLOG'IM –
QALB ARDOG'IM»
tanloviga**

**INSON QADRI
BALAND YURT**



Vatan ostonadan boshlanadi, deydi dono xalqimiz. Ostonam esa muqaddas joy. Inson uchun dunyoda eng ko'rkam joy bu kindik qoni to'kilgan zamin. Men uchun ham eng aziz va tabarruk go'sha bu ona qishlog'im – Chaqar.

Bu shahar tashqarisidagi mustahkam devor bilan o'ralgan qo'rg'on ma'nosini anglatadi. Manbalarda yozilishicha, «Chaqa» kichik degan ma'noni ham bildirar ekan.

Qishlog'imiz obod va ko'rkam. Unda 90 dan ortiq oila, 500 dan ko'proq aholi istiqomat qiladi. Uchta savdo do'koni, hashamatli masjid qishlog'imizga ko'rk beradi. Qishlog'imizdan tibbiyot fanlari do'ktori, professor Tohir Yarashev, fan nomzodlari Boymirod Choriyev kabi el sevgan hamqishloqlarimiz bor.

Mustaqillik yillarida qishlog'imiz yana-da obodlashdi. Bunyodkorlik, ko'kalamlashtirish ishlari avj oldi.

Men mana shunday inson qadri baland yurtda, ozod Vatanda, Vatan ichra Vatan bo'lgan ona qishlog'im – Chaqarda yashayotganimdan baxtiyorman.

Qalbm ardog'idagi ona maskanimning yana-da gullab yashnashi va ravnaq topishi uchun o'zimning bor kuch va imkoniyatlarimni sarflayman.

Mahbuba QOYIROVA,
Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi
32-maktabning 5-sinf o'quvchisi

Mahallaga maktab ma'muriyatidan xat tushdi:

«Mahallamizda yashovchi N. ismli bola 8-sinfda o'qiydi. U juda sababsiz dars qoldiradi. Ota-onasi umuman nazorat qilishmaydi. Baholari ham qoniqarsiz, uyga berilgan vazifalarni tayyorlamaydi. Ammo xulqi yomon emas. O'zi mehribon va mehnatsevar. Ota-onasini maktabga jalb etishda yordam bersangiz.»

Bu «Mahalla» guruhi a'zolariga tushgan iltimosnoma edi.

Ha-ya, aytmoq-chi, Hamza tumanidagi 227-maktabning 8-«A» sinfida ota-onalar uchun «Maktab, oila va mahalla hamkorligi» mavzusida trening mashg'uloti o'tkazildi. Ota-onalar uch guruhga – «Oila», «Maktab» va «Mahalla» guruhlariga bo'lindilar. Ularga o'z guruhlari bo'yicha savollar berildi. Unda sinf rahbari duch keladigan ayrim pedagogik muammolarning yechimini ota-onalarning o'zlari ishlab chiqdilar.

**«BUNDAY MAJLISDA
QATNASHMAGANMAN»**

Bu gap ota-onalar majlisida aytildi

«Oila» guruhidan iborat bo'lgan ota-onalarga quyidagicha savol berildi.

«Oilada farzandingiz mehribon, odobli. Lekin maktabda farzandingizdan o'qituvchilar shikoyat qilishadi. Bir kuni sinf rahbari sizga qo'ng'iroq qilib, farzandingiz uch kun maktabga kelmaganini, to'rtinchi kun esa ikkinchi soatdan so'ng darsdan qochib ketganini ma'lum qildi. Shunday vaziyatda siz qanday yo'l tutasiz?»

Bu kabi savollar guruh a'zolari bo'lgan ota-onalarni ham sergaklantirdi. Ular bir ovozdan sinf rahbari va ota-onani bir-biri bilan bog'lab turuvchi KUNDALIK ekanligini yana bir bor tushundilar. Har kuni ota-ona o'z farzandining kundaligi bilan tanishib chiqishi zarur ekanligini angladilar.

Ayniqsa, eng faol, a'lochi va namunali o'quvchining ota-onalariga maktab ma'muriyati tomonidan «Faxriy yorliq» topshirildi. Ushbu ota-onalar majlisidan hamma birdek mamnun bo'ldi.

Dilfuza TO'XTAXO'JAYEVA,
Hamza tumanidagi 227-maktab o'qituvchisi

TAHRIRIYATDAN:

Xalqimizda ajoyib naql bor. «Hech qachon onaga «Farzanding yomon» demagil. Boshqa yo'lini top».

Sinf rahbari boshqa yo'lini topdi. Uning ziyrakligi sabab ota-onalar o'zlariga kerakli xulosani chiqardilar. Hatto «Bunday majlisda qatnashmaganmiz, o'z farzandlarimiz haqida to'liq ma'lumot oldik, hech kim bizni koyimadi-ya», deyishdi.

Sizda-chi, aziz ustozlar, o'quvchilar! Ota-onalar majlisi qanday o'tkaziladi? Ota-onangiz hamisha ishtirok etishadimi? Bu haqdagi fikrlaringizni kutib qolamiz.



**XAYR,
MAKTAB!**

Ilk bora qo'yib qadam,
Senda chiqardim savod.
Qo'limga oldim qalam,
Minnatdorman umrbod.

O'ynab, kulib bag'ringda,
Qilar edik erkalik.
Afsuz etmay qadringga,
O'tib ketdi bolalik.

Bugun kabutar misol,
Aylamoqdamiz parvoz.
Xayr, maktabim, xush qol,
Xayr, mehribon ustoz.

Unutmamiz bag'ringni,
Sinfidosh o'g'il-qizlarni.
Jonajon maktab, sen ham,
Eslab turgin bizlarni.

ESDALIK

Qadrdomim, esdalik
Yozay senga borimni.
O'tib ketsa bolalik,
Eslat do'st-u yorimni.

Mayli, yuz yil o'tsa ham,
Senga tushganda ko'zim.
Yodga olay men shu dam,
Do'stlarimning dil so'zin.

O'tsa hamki ko'p yillar,
Bo'lib ketsa begona.
Senda qolgan satrlar,
Bir xotira yagona.

**MUSTAQILLIK
TONGI BU**

Baxti kulgan bir qizman,
Ota-onam yonimda.
Ona kabi bag'ri keng,
Yurtim mehri jonimda.


Baxti kulgan avlodmiz,
Vatanning osmoni tinch.
Keng imkonlar zavqidan,
Ko'zni nam qilar sevinch.

Bunday baxtni ulashgan,
Mustaqillik tongi bu.
Ajdodlarning orzusi,
Asrlarning bongi bu.

Shahzoda ABDURASULOVA



QALDIRG'OCH-U QARG'A QISSASI



Qaldirg'ochoy qaldirg'ochchalariga qarayotgandi. Qo'shni qayrag'ochga qop-qora qarg'a qo'nib qag'illayverdi.

Qaldirg'ochchalar qo'rqqanidan qichqirishdi. Qaldirg'ochoy qahrlandi-yu, qora qarg'aga qarab qiyqirdi:

– Qora qarg'a, qop-qora qarg'a, qoch, qo'shni qishloqdagi qarag'ayga qo'nib qag'illa. Qara, qattiq qag'illaganingdan qaldirg'ochchalarim qo'rqishyapti.

Qarg'a:

– Qara-ya, qiltiriq qaldirg'ochdan qo'rqib qochamanmi? Qaldirg'ochchalarning qo'rqqaniga qarab quvonyapman-u, qag'-qag'-qag'.

– Qahringning qattiqligini qara-ya. Qochmasang, qochma. Qara, qarindoshim Qirg'iyvoy qanotlarini qoqib-qoqib, qo'shni qishloqdagi qarag'ayga qo'nmoqda. Qaldirg'ochlarimni qo'rqitayotganingga qarab qolsami, qop-qora qanotlaringni qiyma-qiyma qiladi...

Qora qarg'a qaldirg'ochning qarindoshi Qirg'iyvoydan qo'rqib, qo'shni qishloqqa qarab qochibdi.

Qaldirg'ochchalar qo'rqinchli qora qarg'adan qutilganlaridan quvonishibdi.



Gulchehra ABDURAUPOVA,
5-sinf o'quvchisi

«Quvnoq tanaffus» sahifasida ko'plab boshqotirmalar, qiziqarli masalalar berib borilayotgani bilimingizni boyitishda ayni muddao bo'layotgani haqida yozypsiz. Tengdoshingiz Toshkent viloyati, O'rta-chirchiq tumanidagi 37-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi Sabohat Jabborova tuzib yuborgan ingliz tilidagi skanvord esa sizni topqirlikka o'rgatibgina qolmay, til o'rganishingizda ham qo'l keladi, degan umiddamiz.

Q										
O										
U										
X										
S										
T										
Q										
I										
R										
S										

English scanword

1. Farq.
2. «Mehribonlikuyi».
3. Ajoyib.
4. Qo'shni.
5. Yon bilan.
6. Dahshatli.
7. Samolyot.
8. Dazmol.
9. Yog'ingarchilik.
10. O'xshashlik.

QIZIQARLI MASALALAR

Salom tahririyat xodimlari!
Yozgan maqolam va rasmlarimni «Quvnoq tanaffus» sahifasida chop etganingiz uchun katta rahmat. Uni mahallamiz bolalari, sinfdoshlarim, ustozlarim o'qib, juda mamnun bo'lishdi. Bugun tengdoshlarimning topqirliklarini sinab ko'rish maqsadida, bir nechta qiziqarli masalalar yozib yuboryapman. Lozim topsangiz, chop etarsiz:

1-masala:

Bir guruh o'quvchi maktab bog'iga kirib, kim nechanchi bo'lib boqqa kirgan bo'lsa, shuncha olma uzib chiqishibdi. So'ngra, olmalarni bir savatga solib, har bir o'quvchiga teng taqsimlashibdi. Shunda har bir o'quvchiga 15 tadan olma tegibdi.

Toping-chi, boqqa necha o'quvchi kirgan va necha dona olma uzib chiqishgan?

2-masala:

Ikki dona qutida qo'ng'iz va o'rgimchak bor. Har ikki qutidagi hasharotlarning oyog'i 52 ta, boshi esa 10 ta. Qani, aying-chi, qutilarga nechta qo'ng'iz va o'rgimchak bor?

3-masala:

Hayvonot bog'ida qirg'ovullar va quyonlar yurishibdi. Ularning boshlari ellikta, oyoqlari esa 140 ta. Hayvonot bog'idagi quyon va qirg'ovullar sonini aniqlang?

4-masala:

Velosipedchi bir chaqirim masofani shamol yo'nalishi bo'yicha 3 daqiqada, shamolga qarshi 5 daqiqada bosib o'tdi. Shamol esmayotgan paytda bir chaqirim masofani qancha vaqtda bosib o'tgan bo'lardi?

5-masala:

Uchga bo'lganda bir qoldiq, to'rtga bo'lganda ikki qoldiq, beshga bo'lganda uch qoldiq, oltiga bo'lganda to'rt qoldiq qoladigan sonni toping.

Jayrona SULTONOVA,
Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 33-maktab o'quvchisi

TOPISHMOQLAR

Ohak emas, u oppoq,
Un ham emas u biroq,
Issiq tegsa mabodo
Tiniq simobdek shu choq.

O'xshab ketar shakarga
Saqlay demang bekorga,
Issiqda singar yerga
Yo intilib anhora.



Bo'g'otlarni bezabdi
Mohir usta yasabdi.
Ko'zni o'ynatar nuri
Qolmas issiqda bari.

Go'yoki tivit kosa
Sovuqda mazza rosa.
Baxt qushiday qishda
Qo'nib oladi boshga.



Toshpo'lat XOLMAT

XANDALAR

KO'ZINGAYTIB TURIBDI

Onasi Oqilni koyidi:

– Nega yolg'on gapiryapsan, axir ko'zlaring aytib turibdi-ku.


– O'zingiz yolg'on gapiryapsiz!
Ko'zlarimning tili yo'qki, gapira olsa...



BETOB DEVOR

– O'yijon, devor ham kasal bo'ladimi? – so'radi ajablanib Kamola.

– Yo'q, nega unday deyapsan?
– Nega unda termometr ilib qo'yishibdi...




JO'JA

Har kun uni boqaman,
Ammo yemaydi tariq.
O'rtoqlarim kulib der:
«Jo'jang bunchalar oriq?»
Ayb mendamas, jo'jamda,
Tanlab yeydi ovqatni.
Tezroq katta bo'lmaydi,
Sinab sabr-toqatni.
Mening jo'jam ham bir kun,
Tovuq bo'lib qoladi.
O'shanda o'rtoqlarim,
Tuxum so'rab keladi.

Madina RAHIMJONOVA
Nozima opasining she'riga moslab rasm chizib yuboribdi-ya!

Nozima MAMATALIYEVA,
1-Toshkent pedagogika kolleji
2-bosqich talabasi




(Boshi o'tgan sonlarda)

Kavsar TURDIYEVA

Ll

L harfini ko'rgan on,
Deysiz u kitob javon.

Meni tishlab dema voy,
Nordondirman hoynahoy.
Choyga shakar bilan sol
Eh, mazali bo'lar choy.




Ko'ylak, shimman va nimcha,
To'ncha yoki to'ppicha.
Kiyining qo'yib ixlos,
Sizga yarashar...

Munchoq ko'z og'a-ini
Uylari pichoq qini.
Mo'ylov yozib dalada
Pishar yoz, kuz pallada.



U juda tansiq taom,
L harfidan olgan nom.
Chaqqonlikda qilinar,
Goh quloqqa ilinar.

Uzun tumshuq oyoqda,
Oyoq go'yo tayoqda.
Hindistondan kelgan lo'k.
Bo'yni uzun, to'qi ko'p.
U yozdan berar darak
Uning otidir...




Loyxo'rak soyda yurar,
Laqqa baliqni ko'rar,
Lallayib qarar laqqa,
Va to'xtab qolar taqqa.

Har donada bitta nok
Nur taratar tungi chog'...




Qozonga hamroh turar,
Unga palov suzilar...



Dasturxonga terilar,
Shirinliklar qo'yilar...



Tog' guli deb atalar,
Toq qo'yniga qadalar.
Terar qizlar, bolalar
Qip-qizildir...




Mm

Ikki o'rtoq keldik biz,
Qo'lni qo'lga berdik biz.
Qilmasdan kuchimiz sarf,
Yozildi M degan harf.



Sherigimdir kovushim,
G'ichirlaydi tovushim.
Etikdek jussam, jismim
M dan boshlanar ismim...

Mo'-mo'-mo', ma'rar buzoq
Ovozi yetar uzoq.
Me-me, ma'rar echkicha,
Suv bering menga picha.




Mahalla kichik maskan,
Vatanim ichra Vatan.

M mehrdan olingan,
Musiqadek chalingan.
Meva bo'lib pishdi u,
Va maysaga tushdi u.
Bunday o'ylab qaragam,
M harfidan ko'p narsa.

Oyog'ida tuyuq yo'q,
Oyog'iga sanoq yo'q.
Yana sanasang takror,
Mingta chiqar ehtimol...

Mushugim bor, oti Mos!
Mo'ylabli hamda bebos
Meva emas, yemas mo
Faqat ichadi sut choy.



Bog'da pishib yetilar,
Parvarish ham etilar.
Xil-xil pishar bog'larda
Bahor, yoz, kuz chog'larda...

Bizga kulgu ulashar,
Katta burni yarashar.
Qalpog'i o'ziga mos,
Sirkdagi...



(Davomi bor)

L
B
E
D
A
N
E
C
H
T
A
H
A
R
F
B
O
R
?

QAMBAR OTA

TOZA HAVO

To'yingan toza havo,
Aziz jonigga davo.
Har yutimi zo'r ne'mat,
Bag'ishlaydi baxt-omad.

Gulu giyoh hikmati-
Bebahodir xislati.
Rohatdan ko'ksing to'lib,
Yayraydi diling kulib.

Yuraging «duk-duk» urar,
Hayot gashtini surar.
Olingan toza nafas,
Sog'ligingga zo'r asos.

Oftob nurin
ichaman

Qarang do'stlar, jo'ralar,
Quyosh ko'kdan mo'ralar.
Bag'ridan sehr elar,
Yoqimli mehr elar.

Osmon to'la nur yog'ar,
Tanlarga huzur yog'ar.
Derazani ochaman,
Oftob nurin ichaman.

Dunyo yashnab poklanar,
Ezozlab ardoqlanar.
Madad olib ziyodan,
Umrim kular ziyoda!

Hamidullo ISMAT

Ona tilagi

Hilol ko'kda taratganda nur,
Ishkomlarda oqshom pallasi.
Yuraging solib bir surur,
Eshitildi ona allasi.

Butun borliq yig'ilib go'yo,
Shu qo'shiqda bo'lgan edi jam.
Zuhro yulduzi taratib ziyo,
Tinglar edi allani u ham.

Ona kuylar, ulg'ayib o'g'li
Pahlavondek bir yigit bo'lsa.
Buloq kabi pok bo'lsa ko'ngli,
Unib o'ssa, g'ayratga to'lsa.

Ha, notinchdir ona yuragi,
Chunki olam ko'nglidek emas.
Juda oddiy uning tilagi,
Yer yuzida tinchlik bo'lsa bas.

Men bahorni sog'indim. U fasllar kelinchagi deb nom olgan.

Bahor! Uning nomi ham chiroyli. Hozir ko'chada yog'ayotgan yomg'ir bahor kelishini aytib, qo'shiq kuylamoqda. Men uni tinglayapman...

Yomg'irga derazadan termular ekanman, hatto tomchilar biz kabi bahorni sog'inganini payqadim. Aslida yomg'ir bahorda ko'p yog'adi. Lekin bu yil boshqacha bo'ldi. Faqat qishda ikki-uch marotaba qor yog'di, xolos. Yomg'ir bo'lsa, tez-tez yog'ib turibdi. Demak, dehqon yeri suvga to'yadi, hosil mo'l bo'ladi, deyishadi keksalar.

Bahor yer yuzini go'zallikka, fusunkorlikka

BAHOR



QO'SHIG'I

burkaydi. Gullarning atri, dala-yu bog'lar, qir-u adirlar go'zalligi tabiatning mo'jizasini yana bir bor namoyon etadi. Hatto maysalar asta bosh ko'tarib jilmayadi. Quyosh zarrin nurlarini erinmay borliqqa sochadi.

Bahorni sog'inishimni yana bir boisi bor. Chunki Navro'z ayni bahor faslida nishonlanadi. Ko'chalarda, shaharlar-u qishloqlarda bayram bo'ladi. Momolarimiz Navro'z taomi sumalakni pishiradilar. Biz bolalar esa to'yib-to'yib yeymiz.

Dilnavoz ABDUVAHOBOVA,
230-maktabning 6-sinf o'quvchisi

SPORT

STADIONDA KO'RISHGUNCHA!


Ayni kunda sport bayramiga katta taraddud ko'rilmogda. Shaharda allaqachon bunyodkorlik ishlari poyoniga yetgan. O'quvchilarning turar joyi deysizmi, sport zali va oshxona yosh sportchilarni intilqlik bilan kutmogda.

«Umid nihollari – 2009» sport

o'yinlarining tantanali ochilish va yopilish marosimlari bo'lib o'tadigan markaziy stadion tubdan ta'mirlangan. Ushbu stadion o'z bag'riga yigirma mingdan ziyod tomoshabinni o'z og'ushiga oladi. Stadion ichida konferensiya zali, o'yinchilar, murabbiylar va hakamlar xonalari mavjud bo'lib, barcha qulayliklar yaratilgan. Hozir shahardagi 1- TIP bolalar sport majmuasida qurilish ishlari yakunlanib,

«Umid nihollari-2009»

Nabi, Nodir va Jasur maktabdan qaytayotganlarida, har kuni stadionda mehnat qilayotgan quruvchilarga «hormanglar» deyishni kanda qilmaydilar. Har bitta stadiondagi o'rindiq, yo'lakchalar va ko'm-



ko'k chim qoplangan futbol maydonini ko'rib zavqlanadilar. Yana, bu yil ularning shahriga butun respublikadan maktab o'quvchilari kelishadi. Demak, sirdaryoliklar musobaqaga mezmonlik qilishadi.

foydalanishga topshirilibdi.

Biz qurilish ishlariga boshqosh bo'lib yelib yugurayotgan Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi viloyat filiali ijrochi direktori Norbobo Soatovdan ta'mirlash ishlari haqida so'radik:

– Ha, qurilish ob'yektlarimizning barchasida so'nggi ta'mirlash-pardozlash ishlari bajarilyapti. Ta'mirlash ishlari tugagan maydonlarga esa zarur sport jihozlarini

o'rnatyapmiz. Biz maktab o'quvchilarining sport musobaqasiga mezbonlik qilayotganimizdan xursandmiz, – dedilar.

Katta sport bayramiga hozirlik ko'rayotgan fidoiy insonlar hamda qo'li gul bunyodkor quruvchilar xizmatini ko'rib, Gulistonda sportchilarga katta e'tibor qaratilayotganiga amin bo'ldik. Nasib bo'lsa, stadionda ko'rishguncha!

SEVINCH SEVINIB YURADI

7 yoshga to'lgan qizaloq oilasidagi tartib-intizomga, ya'ni kun tartibiga o'rganib ketgan.

U maktabda a'lochi, gimnastikachi o'rtoqlari orasida shahar chempioni.

Men Sevinchni deyarli har kuni ko'raman, albatta sport zalida. Qiziq, u o'zi bilan birga doimo chiroyli sumkachasi va qo'g'irchog'ini ko'tarib keladi.

– O'yinchoqlaringni uyda o'ynamaysanmi? – desam, u menga:

– Uyda vaqtim yo'q-ku, – deya jilmayib qo'yadi.

Darvoqe, Sevinch haqida xuddi boladek gapiryapman-u, uning oilasi bilan sizlarni tanishtirishni unutay debman-a!

Dadasi Ma'rufjon Po'latov Namanganning Chustidan. Hozir Toshkentning «Spartak» futbol klubida futbolchi. Oyisi Oksana Po'latova gimnastika bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi. Akasi Farruh 11 yoshda. U «Paxtakor» bolalar futbol akademiyasida tahsil oladi. Jamoada Farruh yaxshi



himoyachi deb nom olgan.

– Katta bo'lsam, albatta Olimpiada chempioni bo'laman, – deydi Sevinch.

Men qizaloqni har ko'rganimda kuzataman. U doimo kulib yuradi. U hamisha sevinib yuradi. Boisi, sport qizaloqning quvonch maktabiga aylangan.

7 OCHKO BILAN BIRINCHI O'RIN!

Kechagina poytaxtimizdagi shaxmat bo'yicha O'zbekiston chempionati birinchi ligasining qizlar o'rtasidagi bahsi yakunlandi.

Bellashuvlarda oliy liga yo'llanmasi uchun to'rt nafar shaxmatchi qizlarimiz saralandi.

Surxondaryolik tengdoshingiz Maftuna Jonqulova va sirdaryolik Sarvinoz Qurbonboyeva chempionatning so'nggi to'qqizinchi turida uchrashdilar. Ammo Maftunaga yutqazib qo'ygan Sarvinoz baribir 7 ochko to'plab, birinchi bo'ldi. Natijada u oliy ligaga yo'llanma oldi. Qolgan uch yo'llanmaga esa 6,5 ochko bilan toshkentlik Sevara Boymurodova, qashqadaryolik Umida Chorshanbiyeva va surxondaryolik Umida Jonqulova egalik qilishdi.



O'yinda gol-uraman, maydonda zo'r bo'laman, Katta bo'lsam, albatta men futbolchi bolaman. Kamolov Umidbekman, eslab qoling siz meni, Hozircha olti yoshman, «futbolchilar»ga boshman.

FUTBOL – TEST

1. 2008-yil qaysi jamoa Yevropa chempioni bo'ldi?

- A) Rossiya;
- B) Germaniya;
- D) Ispaniya;
- E) Portugaliya.

2. 2008-yilning oltin to'p sohibi kim?

- A) Ronaldino;
- B) Kaka;
- D) K. Ronaldu;
- E) Nani.

3. Angliya premyer ligasida qaysi jamoa g'olib bo'lgan?

- A) Mancheyster Yunaytet;
- B) Chelsi;
- D) Liverpul;
- E) Stok Siti.

4. O'zbekiston futbol terma jamoa sardori kim?

- A) Ignatiy Nesterov;
- B) Server Jeparov;
- D) Odil Ahmedov;
- E) Maksim Shatskin.

5. «Real Madrid» darvozabonini toping?


- A) Buffon;
- B) Van Der Sar;
- D) Kasilas;
- E) Avviati.

6. 2008-yilgi O'zbekiston to'purari kim?

- A) Akmal Xolmatov – «Paxtakor»;
- V) Ulug'bek Baqoyev – «Bunyodkor»;
- S) Aleksandr Genrix – «Paxtakor»;
- D) Server Jeparov – «Bunyodkor».



Sardor SODIQOV, poytaxtimizdagi 248- maktabning 5-sinf o'quvchisi, «Paxtakor» futbol akademiyasining darvozaboni



O'quv binosiga kiraverishda Toshkentning 2200 yilligiga bag'ishlangan rasmlar ko'rgazmasi tashkil qilinibdi. Rasmlarga boqib, bolajonlarning Vataniga, ona shahriga mehri naqadar yuksakligiga havas qildim. Shu tobda yosh musavvirlar nigohidagi poytaxtimiz chiroyiga bir zum mahliyo bo'lib qolganimni sezmay qolibman. Maktab faollar zali tomon oshiqayotgan o'g'il-qizlarning allaqanday tomosha haqidagi suhbatlari qulog'imga chalinib, beixtiyor ularga ergashdim. Zalga kiraverishda quyidagi e'longa ko'zim tushdi:

He-he-he, bolalaru, bolalar, boqda bitgan lolalar, eshitmadim demanglar!
 Dugun maktabimizning muhtasham saroyida 7-«B» sinf o'quvchilari ishtirokida Gafur Gulomning «Shum bola» qissasi asosida sahnalashtirilgan «Halfana» nomli hazil tomoshagi boladi. Barchangizni tomoshaga taklif qi-la-mi-z-z!»




Madinabonu Ziyovutdinovanning ijrochilik mahoratiga nafaqat tengdoshlari, balki ota-onalar, ustozlar, buva-yu buvijonlar ham tasannolar aytishdi. Tojixon, xo'rozvoy kabi bir emas, bir necha rolni maromiga yetkazib ijro etgan «qora qosh» Aziza Erkinovanning qobiliyati, jaji «aktyorlar»ning nutqi, sahna madaniyati, liboslari, har bir ko'rinishga mos sahna bezagi haqida esa gapirmay ham qo'ya qolay. O'quvchilar bu liboslarni biror-bir teatrdan ijaraga olgandirlar, deb o'ylagandim. Ma'lum bo'lishicha, bu liboslarning barchasini dizayner Emma Alekseyevna o'z shogirdlari bilan birgalikda tikkan ekan. Maxsus xonadan eng yirik hayvondan tortib, eng mitti hasharotgacha tasviri aks ettirilgan 1500dan ziyod liboslar joy olgan ekan.

Yo'lim tushib, poytaxtning Uchtepa tumanidagi «Orom» bog'cha-maktab markaziga borgandim. Hovlidagi ajoyib manzara diqqatimni tortdi. Chinnidek supurilgan yo'lak chetidagi atirgullar mitti-mitti bargchalar chiqaribdi. Bog'da «saf tortgan» archalar yam-yashil bo'lib, kishi ko'zini quvnatadi. Ayniqsa, kichkintoylar maydonchasidagi arg'imchog'-u, jonlidek boqib turgan beozor jonivorlar haykalchalari nafaqat bolajonlarni, balki kattalarni ham hayratlantiradi.

Halfana - ko'pchilik bo'lib o'rtada tayyorlanadigan osh.

Zalni to'ldirib o'tirgan bolajonlarning olqishlari ostida sahnaga biri Qoravoy, ikkinchisi do'sti Omon, yana biri boy ota, mirshab, qozi va hokazolar siymosiga kirgan 7-«B» sinf o'quvchilari chiqib kelishdi. Tomosha boshlandi. Bolajonlar ijrosidagi «Shum bola»ning zamonaviy, hajviy talqini yig'ilganlarga manzur bo'ldi. Qoravoy obrazini yaratgan



Tomosha yakunida so'zga chiqqan markaz rahbari Gulnora opa Qo'chqorova o'quvchilarga, shunday ajoyib tomoshani tashkil-lashtirgan sinf rahbari Matluba Qosimovaga minnatdorchilik bildirdi:

- Markazimizning boshqa

AYLANMA SKANVORD

Javoblarni belgilangan xonadan soat mili yo'nalishida yozing. Skanvordni hal etgandan so'ng, shakl atrofidagi aylanalardagi raqamlarni javoblari yozilgan xonalardagi harflar bilan almashirib, topshiriqni hal eting. Bunda ulardan soat mili yo'nalishida o'qish bilan tabrik so'zlarimizni bilib olasiz.

8
MART

Words in the puzzle: Ahilik, Go'zal ayol, Ayollar ismi, Bahrom shohning yori, Voyaga yetmagan davr, Marhamat, himmat, Xushboy gul, Qizi bor uy doim..., Ijoiy xislat, Go'zallik, latofat, Shodi-yona, bayram, Xalq raqs kuyi, O'ta kamtar, sodda, «Suyunchi» dagi buvi, Mohlaroyim taxallusi, E'tibor (shoira).

Foziljon ORIPOV tuzdi

ta'lim maskanlaridan farqi shundaki, o'quvchilarimiz uchun maxsus teatrshunoslik fani kiritilgan. Bu fanda o'quvchilarimiz nutq madaniyatini o'stirish, o'z fikrini to'la bayon etishni o'rganish bilan birga, turli spektakllarni sahnalashtirib ham turadilar. Teatr o'yliklarini tashkillashtirishdan asosiy maqsadimiz esa o'quvchilarimizning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, shuningdek, ular qalbida san'atga mehr uyg'otishdan iboratdir. Birgina sahna ko'rinishi tayyorlash uchun o'quvchilarimiz qancha-qancha kitoblarni o'qib chiqishlarini hisobga olsak, ularning kitobga bo'lgan mehrlari ham orta boradi...

- Juda chiroyli raqsga tusharkansiz. Kelgusida raqqosa bo'lishni orzu qilsangiz kerak-a? - deya suhbatga chorladim tortinchoqqina Madina Toshmuhammedovani.

- Raqs tushishni yaxshi ko'raman-u, lekin ulg'aygach, Matluba opa Qosimovadek fidoyi, jonkuyar, mehnatsevar o'qituvchi bo'lish niyatidaman...

Tomoshani ko'rib, o'zimni o'zga bir olamga tushib qolganek his qildim. Bu o'quvchilarning aktyorlik mahorati ancha shakllanib qolgani, qolaversa, ustozlarining samarali mehnati «hosili» bo'lsa, ne ajab?!

Respublikamizdagi barcha maktablarga ibrat qilsa arzigulik yutuqlari ko'p bo'lgan mazkur bilim dargohining o'qituvchi va o'quvchilariga omadlar tilab, bir olam taassurotlar bilan qaytdim.



Feruza JALILOVA



BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy,
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092

Adadi - 68653
Buyurtma N: J 6987

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi:
Zuhra MUHSIMOVA
Navbatchi:
Axtamqul KARIM